SHAXS KAMOLOTINING SHAKLLANISHIDA KITOB VA MA'NAVIYATNING O'RNI

Atadjanov Allanazar Bekchan o'gli
Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqala tuman kasb hunar maktabi yoshlar yetakchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola Buvim Atadjanova Shalman Matyoqub qizining porloq xotirasiga bag'ishlanadi. Shaxsni shakllanish jarayonida bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri bu kitobdir. Aynan biz kitob va kitob mahsulotlari orqali shaxsni shakllanishini kitob orqali tarbiya, ma'naviyat va ta'lim texnologiyalarining samarali yo'llarini ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilib berdik.

Kalit so'zlar: Kitob, mafkuraviy immunitet, ma'naviyat, madaniyat, jaholat, mafkura.

Аннотация

Одним из факторов, непосредственно влияющих на процесс формирования личности, является книга. Мы научно и теоретически проанализировали эффективные способы воспитания, духовности и образовательных технологий через книги и книжную продукцию.

Ключевые слова: Книга, идеологический иммунитет, духовность, культура, невежество, идеология.

Annotation

One of the factors directly influencing the process of personality formation is the book. We scientifically and theoretically analyzed effective ways of education, spirituality and educational technologies through books and book products.

Key words: Book, ideological immunity, spirituality, culture, ignorance, ideology.

Jamiyat rivojini, Davlat islohotlarini kitobsiz, yuksak ma'naviyatsiz tasavvur bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning xam kelajagi yo'q. Eng yaxshi fazilatlar kitobda mujassam. Biz yoshlarimizni bilimli, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashni istasak, ularni kitobga mehr ruhida voyaga yetkazishimiz kerak – deb yutrboshimiz bejiz aytmagan.

Kitob bamisoli nur, qo'lga oldingizmi – yo'lingizni, o'qidingizmi dilingizni –yoritadi. Kitob – oftob. Zaminni, ona tabiatni oftob isitsa, odam qalbini kitob ilitadi, yoritadi, nurlantiradi. Kitobga eng qisqa ta'rif berish joiz bo'lsa, uni ma'naviyat quyoshi deb ta'riflash o'rinlidir. Ya'ni, quyosh bo'lmasa olamning, tabiatning, hattoki hayotning bo'lishi shubha ostida qoladi, kitob bo'lmasa, ma'naviyatning rivojlanishi ham mavhum bir fikr bo'lib qolaveradi.

Kitob - bu haqiqiy do'st, sirdosh va maslaxatgo'y. U dunyoqarashimizni chin ma'noda kengaytira oladigan bebaho va beminnat mo'jizadir. Donishmandlar bejizga " Niholning voyaga yetishi uchun suv va quyosh naqadar zarur bo'lsa - odam aqlining barkamol bo'lishi uchun kitob shu qadar zarurdir . «Kitob - beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi», deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy. "Kitobxonlik – yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirish omilidir."

Darhaqiqat O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan davrda «Respublika aholisini axborat kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida» gi PK-381 sonli qarori, shu qarorning mantiqiy davomi sifatida" Axborot kutubxona to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yilning 12-yanvarida - Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida – farmoyishini chiqarilishi va nihoyat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yilning 13-sentabrida - Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik

madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida-qarorining qabul qilinishi kitob va kitobxonlikga qaratilgan katta e’tibor namunasidir .

Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan “5 Tashabbus” loyihasi ham yoshlarimizni kelajakda yetuk inson bo‘lishini ko‘zlagan holda hayotimiz davomida zarur bo‘ladigan Beshta muhim yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olgan. Besh tashabbusimizning To‘rtinchchi tashabbusi – aholini, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish - bevosita siz-u biz yoshlarni kitoblar dunyosiga maftun etishga qaratilgan. Chunki kitobsevar insondan yurt ravnaqi yo‘lida xizmat qila oladigan haqiqiy yetuk komil insonlar yetishib chiqishi shubhasiz.” Kengroq mushohada yuritadigan bo‘lsak, millat barkamolligi, Vatan taraqqiyoti elning kitobxonlik darajasiga, ya’ni o‘qimishliligiga bog‘liqdir. Kitob asrlarni-asrlarga, zamonlarni-zamonlarga, rishtalarni-rishtalarga ulovchi vositadir. “Kitobsiz xonadon jaholatga o‘xshaydi”, degan ekan bir donishmand. Lekin to‘g‘ri kelgan kitobni o‘qish ham yaramaydi. Chunki buning bir qator sabablari bor. Avvalo, insonning umri barcha kitoblarni o‘qishga yetmaydi . Bundan tashqari, duch kelgan asarni o‘qib ketaverish kishining saviyasiga, uning dunyoqarashining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Inson tabiati, fe’l – atvori , ruhiyatiga mos narsalarga qiziqadi. Kimdir tarixiy kitoblarga qiziqsa, kimdir falsafiy romanlarni o‘qiydi, kimdir sarguzasht asarlarni yoqtirsa, yana kimdir hajviy asarlar ixlosmandi. Yana bir boshqa odam esa she’riyat shaydosi bo‘ladi . Shuningdek , kitoblarning davriyligi ular uchun muhimdir Ota - bobolarimiz xonadonlarida Mashrab , Navoiy , Bedil va boshqa mumtoz adabiyotimiz namunalari maroq bilan o‘qishgan. Farzandlari kitobxonlik davralarida ishtirok etishgan. Natijada ularda kitob o‘qishga havas uyg‘ongan. O‘n to‘qqizinchi asrning o‘rtalarida Buxoro madrasalari faoliyati bilan tanishgan N. Xanikovning guvohlik berishicha, madrasaning to‘liq kursini o‘qib tugatish uchun tolib taxminan 137 ta kitob o‘qishi talab etilgan ekan.

Bilim manbai bo‘lgan kitobni sevish va o‘qish uchun uni tanlay olish va o‘qish madaniyatini bilish kerak. Kitob o‘qish madaniyatiga kitob xarid etish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e’tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi , o‘qish jarayoni, o‘qiganni o‘ziga va hayotga tatbiq etish, bilish kabi yana o‘nlab masalalar kiradi.

Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi. Sh.M. Mirziyoev

Dunyoda hech qachon eskirmaydigan, yo‘qolmaydigan bebaho bir boylik borki, u ham bo‘lsa, farzandingizga bergan bilim va hunardir. Lekin bilim va ma’rifatni qaerdan, nimadan olish mumkin? Avvalo kitob degan xazinadan.Sh.M. Mirziyoev.

Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra kitob o‘qishning bir qancha foydalari mavjud:

1. Asabiylikka barham beradi – 10 daqiqalik mutolaa asabiylikni ikki baravar kamaytirarkan.

2. Uyqusizlik qiynamaydi – Kitob o‘qish tinchlanish va uyquga hozirlik ko‘rishning eng yaxshi usuli. Telefon yoki televizorning yorqin nuri miyamizga uyg‘onish uchun signal beradi. Tungi chiroq ostida kitob o‘qish esa miyani dam olishga tayyorlaydi.

3. Ko‘nglingiz yumshaydi – Mutolaa davomida asar qahramonlari kechinmalari bilan yasharkansiz, uning dardiga sherik bo‘lasiz . Oqibatda real hayotda ham insonlarni yaxshiroq tushuna boshlaysiz.

4. Miyani charxlaydi – Buni-ku endi yoshlikdan bilasiz. Eng zamonaviy kompyuter diagnostikasi uskunalari ham kitob o‘qigach, bir necha kun mobaynida inson miyasidan nerv tolalari soni fiziologik darajada ko‘payishini tasdiqladi.

5. Kurashishga o‘rgatadi–Psixologiyaga oid kitoblarni o‘qish tushukunlikdan chiqishga, maqsadlar sari kurashishga yordam beradi.

6. Chiroyingizni ochadi –Yuqori aqliy salohiyat atrofdagilarning e'tiborini tortmay qolmaydi. Har qanday mavzuda suhbatlasha olishingiz sizni boshqalardan ko'ra maftunkor ko'rsatadi.

7. Maqsadlaringizni belgilashga ko'mak beradi – Qahramonlarning erishgan yutuqlari sizni ilhomlantirishi aniq.

8. Ijtimoiy faol bo'lasiz – Kitob o'qiganlar madaniy va ma'rifiy tadbirlarda faolroq ishtirok etishini statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi.

9. Xatosiz yoza boshlaysiz –Kitob o'qiganlarning yozishmalari xatosizligi bilan ko'zni yayratishi sir emas.

10. Xorijiy tillarni o'rganishga yordam beradi –Muntazam mutolaa yangi materiallarni tushunish va eslab qolishga yordam beradi, ayniqsa, chet tillarini o'rganishda bu qo'l keladi.

11. Ijodiy salohiyatingiz o'sadi–Kitob o'qimay tuzukroq qo'shiq kuylagan, musiqa yozgan, rol ijro etgan, rejissyorlik qilgan kimni taniysiz? Xulosa chiqaravering.

12. Farzandlaringiz bilan munosabatlaringni yaxshilaydi – Ota-onalar farzandlariga kitob o'qib berarkan, ularning o'rtasida shunday mustahkam rishtalar paydo bo'ladiki, buni birgalikda televizor ko'rish yoki boshqa ko'ngilochar tadbirlarni tomosha qilish bilan solishtirib bo'lmaydi, deydi ruhshunoslar.

13. Boy bo'lasiz –Kitob o'qiganlar ichida boylarning ulushi o'qimaydigan larga nisbatan bir necha karra ko'p.

14. Jinoyatning oldini oladi – Kitob o'qiganlar ichida jinoyatchilar kam. Qamoqxonalarda mutolaani boshlagan jinoyatchilar esa qayta qing'ir yo'lga qadam tashlamasliklari ham o'rganilgan.

15. Nutqingiz rivojlanadi–Birovlarning hayoti haqida o'qirkansiz, o'z fikringizni ham tiniq bayon etishga o'rganasiz. Keraksiz axborotlarni filtrlash, gapingizni birovlarga uqtirishingiz oson kechadi. So'z boyligingiz oshadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki kitob o'tmishni ham, kelajakni ham yoritib beruvchi mayoqdir. Kitoblar zamonlar to'lqinlarini yorib o'tib, qimmatbaho yuklarini avlodlardan avlodlarga ardoqlab yetkazuvchi tafakkur kemalaridir. Kitobni bepoyon olamga – bag'ri keng, osmoni baland, tubi teran, o'qigan saring o'z javohirlarini senga baxsh etguvchi go'zal xazinalar olamiga o'xshatgim keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev. Besh muhim tashabbus.
2. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Tursunov.I.Y.Nishonaliyev.U.N. Pedagogika kursi. Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Tulenov.J.G'ofurov.Z.Mustaqillik va milliy tiklanish. Toshkent: O'qituvchi, 1996.

https://wordlyknowledge.uz